

O. KARIMOVA


KONSTITUTSIYA ALIFBOSI

4-sinf o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
tomonidan tasdiqlangan*

Majburiy
bepul nusxa

TOSHKENT
“YANGIYO'L POLIGRAF SERVIS”
2015



UO'K: 372.834(075)

KBK 67.400.1(50')

K25

Karimova, Omina

Konstitutsiya alifbosi : 4-sinf o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma /

O. Karimova. - Toshkent : Yangiyo'l Poligraf Servis, 2015. - 32 b.

ISBN 978-9943-979-57-4

UO'K: 372.834(075)

KBK 67.400.1(50')ya72

Mas'ul muharrir – *U. Hotamov*, yuridik fanlar nomzodi.

Metodist – *N. Ismatova*, Respublika ta'lim markazining
ijtimoiy fanlar bo'limi boshlig'i.

Taqrizchilar:

Yuridik fanlar doktori, professor *O. Husanov*;

Toshkent shahri, Sirg'ali tumani, 301-maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi *M. Niyozova*.

Shartli belgilar:



– yangi mavzu



– yozma topshiriq



– yodda tuting



– mavzu bo'yicha savollar



– topshiriq






– mavzuning yakunlanishi

ISBN 978-9943-979-57-4

© «Yangiyo'l poligraf servis», 2012, 2014, 2015.

© O. Karimova 2012, 2014, 2015.









Aziz o'quvchilar!

Biz sizlar bilan "Konstitutsiya alifbosi"ning yakuniy qismiga ham yetib keldik. To'rtinchi sinfda mamlakatimiz Konstitutsiyasini yanada chuqurroq o'rganishga intilishimiz lozim. Ushbu sinfda biz Konstitutsiyamizni va mamlakatimizdagi boshqa qonunlarni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lab o'rganishga harakat qilishimiz darkor. Chunki bizning huquqiy bilimlarni o'rganishimizdan maqsad ularni hayotda qo'llashdan iboratdir.

Qo'lingizdagi ushbu kitob sizning konstitutsiyaviy bilimlar zinapoyasidan yana bir pog'ona ko'tarilishingizga zamin yaratadi, deb umid qilamiz.




1. KONSTITUTSIYA — DAVLATNING ASOSIY QONUNI



1. Rasmlarga qarab, ularda nimalar tasvirlanganligini ayting.
2. Ularning Konstitutsiyamizga qanday aloqasi bor?
3. 3-sinfda o'tilganlarni eslab, O'zbekiston Respublikasi-ning Konstitutsiyasi nima uchun Bosh qomusimiz deyilishini tushuntirib bering.


Konstitutsiya asosiy qonun deb ataladi, chunki u boshqa qonunlarga asos bo'lib xizmat qiladi. Bizning asosiy qonunimiz 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan.

Fuqarolarning o'zini tutishi, hayotning har xil sohalari bo'yicha eng muhim qoidalarni belgilab beradigan qonunlar Konstitutsiyaga asoslanib tuziladi va qabul qilinadi. Ularda nima qilish mumkinligi, nimani qilish taqiqlanganligi va qonun buzilsa, qanday jazo choralari ko'rilishi belgilanadi.



Krossvordni yeching.

1. Odamlar, mamlakat aholisi.
2. Davlat ramzlaridan biri.
3. Vatanni sevadigan inson.
4. Xalq tanlagan, xalqning davlat hokimiyatidagi vakili.
5. Davlatning asosiy qonuni.



1. Nega Konstitutsiya mamlakatimizning asosiy qonuni deb ataladi?
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
3. Qonunlar nimalarni belgilaydi?
4. Qonunlarda nima haqida gapiriladi?
5. Nega qonunlar zarur?





2. BIZNING VATAN – O‘ZBEKISTON



O‘zbekiston bizning Vatanimizdir. O‘zbekistonni biz ona Vatan deb ham ataymiz. Vatanni onaga qiyoslashimizning ramziy ma‘nosi bor. Chunki ona inson uchun eng yaqin, sevimli, mo‘tabar zotdir. Shuning uchun ham biz o‘z onamizni qanchalik sevsak, Vatanimizni ham shunchalik e‘zozlashimiz va ardoqlashimiz darkor.

O‘zbekiston mamlakatining rasmiy nomi – O‘zbekiston Respublikasi. 1991-yil 31-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi mustaqil deb e‘lon qilindi. Shuning uchun har yili 1-sentabr kuni biz Mustaqillik bayramini nishonlaymiz. Mustaqillik mamlakatimiz erkinligini anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi o‘z davlat ramzlari – madhiyasi, gerbi va bayrog‘iga ega.






1. Vatan deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday insonni biz vatanparvar deb ataymiz?
3. Vatanimiz shuhratini oshirish uchun har birimiz nima qilishimiz kerak?

4. Mamlakat mustaqilligi deganda nimani tushunasiz?
5. Vatanimiz qachon mustaqillikka erishdi?
6. Vatanimizning qanday davlat ramzlarini bilasiz? Ular haqida soʻzlab bering.



Rasmlarga qarang va mustaqil Oʻzbekiston haqida hikoya tuzing.



1. 5-rasmda qanday marosim tasvirlangan?
2. Nima uchun biz mustaqillik kunini bayram sifatida nishonlaymiz?
3. Birinchi qatordagi rasmlarning mamlakatimiz mustaqilligiga qanday aloqasi bor?
4. Uchinchi qatordagi rasmlarning-chi?
5. 4- va 6-rasmlarni tavsiflab bering.





3. MEN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FUQAROSIMAN

Kimni davlat fuqarosi deb atashadi? Fuqarolik nimani anglatadi?

Konstitutsiyamizda har bir inson fuqaro bo‘lish huquqiga ega deb yozilgan. O‘zbekistonda tug‘ilgan har bir inson yoki boshqa mamlakatda tug‘ilgan, ammo otasi yoki onasidan biri O‘zbekiston fuqaroligiga ega inson O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘la oladi.

Dunyoga keldingmi, bas,
Bilgin ilk huquqingni.
Faxrlanib tanigin
O‘zingni, o‘z ismingni.

Tug‘ilgan har bir chaqaloqqa guvohnoma beriladi. Unda chaqaloqning ismi, uning otasi va onasining ismlari va familiyalari yoziladi. Guvohnomada bolaning tug‘ilgan kuni, yili va qayerda tug‘ilganligi ko‘rsatiladi. Shu vaqtdan boshlab u mamlakat fuqarosiga aylanadi. Chaqaloqning ota-onasi maslahatlashgan holda unga ota yoki onasining familiyasini berishadi.

Insonning asosiy hujjati – pasport. U har bir fuqaroga 16 yoshga to‘lganida beriladi. Tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma 16 yoshgacha asosiy hujjat bo‘lib xizmat qiladi.





2



3



1. 2-rasmda tasvirlangan hujjatlar qanday nomlanadi? Ularda qanday ma'lumotlar yozilgan?
2. 3-rasmdagi hujjatlar qanday nomlanadi? Ularda qanday ma'lumotlar o'rin olgan?
3. 1-rasmdagi oila a'zolarining har birida fuqaroligini tasdiqlovchi qanday hujjat bor deb o'ylaysiz?
4. Qanday inson O'zbekiston fuqarosi bo'la oladi?






To'g'rimi yoki noto'g'ri?

- Konstitutsiyamizda ayrim insonlar fuqaro bo'lish huquqiga ega deb yozilgan.
- Qizchanning otasi Rossiya fuqarosi, onasi esa O'zbekiston fuqarosi. Qizcha O'zbekiston fuqarosi bo'la oladi.
- Tug'ilgan har bir chaqaloqqa pasport beriladi.
- Pasport fuqaroga 16 yoshga to'lganda beriladi.
- Bolaga otasining yoki onasining familiyasi berilishi mumkin.





4. XALQ — HOKIMIYATNING YAGONA MANBAYI



Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayidir.
O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,
7-modda.



Uchinchi sinfda o'tilganlarni eslab, quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling.

1. Yuqoridagi rasmlarda nimalarni ko'ryapsiz?
2. Oliy Majlis nima bilan shug'ullanadi?
3. Vazirlar Mahkamasi-chi?
4. Prezident qanday vazifani bajarishini aytib bering.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida xalq hokimiyatning yagona manbayidir, deb qayd etilgan. Bu yerda "xalq" deganda mamlakatimiz aholisi ko'zda tutilgan. Har qanday mamlakat aholisi umumiy muammolarni birgalikda yechish oson bo'lishi uchun davlatlarga birlashadi.


Biz bilamizki, davlat asosini davlat organlari va mamlakat fuqarolari tashkil etadi.

O'zbekiston davlat hokimiyatining barcha organlari uch bo'g'inga bo'lingan. Ular – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlaridir.

O'zbekiston Respublikasining asosiy davlat organlariga, o'z navbatida, Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Oliy va boshqa sudlar, hokimiyatlar kiradi. Davlat boshlig'i Prezidentdir. Vazirlar Mahkamasi Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar ijrosi amalga oshirilishini ta'minlaydi.


Xalq saylagan Oliy Majlis senatorlari va Qonunchilik palatasi deputatlari qonun qabul qilish bilan mashg'ul bo'ladilar. Hokimiyatlar esa qabul qilingan qonunlar ijrosi bilan shug'ullanadi.

Shunday qilib, xalq davlat organlariga o'z vakillarini saylash orqali uni boshqaradi. Shuning uchun xalq hokimiyatning yagona manbayidir, deyiladi.



Krossvordni daftaringizga chizing va yeching.

1. _____ oldida barcha barobar.
2. Oliy _____.
3. Davlat boshlig'i.
4. Qonunchilik palatasi a'zosi.
5. Mamlakatda tug'ilgan va shu yerda yashovchi inson.
6. Davlat hokimiyatining uchinchi bo'g'ini.
7. _____ Majlis.
8. Senat a'zosi.





Rasmlarga qarab mavzuga oid hikoya tuzing.




1. Deputatlar saylovi haqida nimalarni bilasiz? Bu saylovlar qanday tashkil etiladi?
2. Qanday davlat boshqaruv organlarini bilasiz?
3. O'zbekiston Respublikasida hokimiyatning necha bo'g'ini bor? Ularning har biri nima bilan shug'ullanadi?
4. Hokimiyatni kim boshqaradi?
5. Nima uchun xalqni hokimiyatning yagona manbai deb ataymiz?





5. QONUN HIMOYASIDA




1. Sud to'g'risida nimalarni bilasiz? Sud faoliyati taroziga qiyoslanishining sababi nimada deb o'ylaysiz?
2. 2-rasmda sud jarayonidagi advokat tasvirlangan. U nimalar to'g'risida hayajonlanib gapiryapti?
3. 3-rasmga qarab, ichki ishlar xodimlari qanday vazifalarni bajarishi haqida gapirib berishga harakat qiling.

Bizning Konstitutsiyamizda belgilangan huquqlarimizni himoya qilish uchun davlat maxsus **organlarini** tuzgan. Ular yordamida davlatimiz o'z fuqarolarini himoya qiladi.

Sud odamlarning ishlarini qonunga muvofiq ko'rib chiqadi va baholaydi. Agar qonun buzilganligi aniqlansa, unga jazo choralari belgilanadi. Mabodo qonun buzilmagan bo'lsa, ayblanuvchi oqlanadi.

Har kim ham o'zini sudda himoya qilish uchun qonunni yaxshi bilavermaydi. Shunday holatda davlat xizmati zarur bo'lib qoladi. **Advokatlar** davlat qonunlarini yaxshi biladi va ularga murojaat etgan fuqarolar huquqlarini himoya qiladi.

Bundan tashqari, **prokurorning** ishi ham katta ahamiyatga ega. Prokuror sudda va boshqa tashkilotlarda qonun to'g'ri bajarilishini nazorat qiladi.



Ko'chada, uyda va boshqa joylarda bizning tinchligimizni **ichki ishlar xodimlari** ta'minlaydi. Ular bizga har doim yordam berishga tayyor.

Yo'llarda yo'l harakati qoidalarining bajarilishini **yo'l-patruL xizmati** xodimlari nazorat qiladi.

Bu odamlarning barchasi, bir so'z bilan aytganda, mamlakatda qonun bajarilishini va uning buzilmasligini nazorat qiladi.



Sudyalar mustaqildir, faqat qonunga bo'ysunadilar.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,
112-modda.



Bilimingizni tekshiring.

Bo'sh kataklarga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni to'ldiring.

- ___ sudda qonunni to'g'ri bajarilishini nazorat qiladi.
___ qonunni yaxshi bilmaydiganlarga yordam beradi, sudda himoya qiladi.
___ jamoat tartibini saqlash va bizni himoya qilish bilan mashg'ul.
___ qonun asosida odamlarning ishlarini baholaydi.
___ yo'l harakati qoidasini nazorat qiladi.



1. Davlatga sud va sudyalar nima uchun kerak?
2. Advokat kim?
3. Advokat odamlarning huquqini qanday himoya qiladi?
4. Kim davlat qonunlarining to'g'ri bajarilishini nazorat qiladi?
5. Yo'l-patruL xizmati xodimlarining vazifasi nimalardan iborat?





6. BOLA HUQUQLARI TO'G'RISIDA KONVENSIYA

Dunyoda davlatlar ko'p. Ular o'zaro aloqa qilib turadilar. Davlatlar o'zaro kelishish asosida hamkorlik qilish uchun ko'pgina umumiy hujjatlar tuzganlar, ularda ko'rsatilgan qoidalarga rioya qilishni o'z majburiyatiga olganlar. Mana shu umumiy kelishuv asosida qabul qilingan hujjat **Konvensiya** deb ataladi.

“**Konvensiya**” so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, “kelishuv” degan ma'noni anglatadi.

“Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya” davlatning bolalarga nisbatan majburiyatlarini o'z ichiga oladi. Konvensiyada ko'rsatilgan qonunlarning ko'pchiligi Konstitutsiyamizda va boshqa qonunlarda takrorlanadi.




“Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya” Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1989-yilda qabul qilingan.



“Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya” to'raligicha bolalar huquqlariga bag'ishlangan. Davlatimiz bolalarning ushbu Konvensiyada ko'rsatilgan huquqlarining mamlakatimizda ta'minlanishini kafolatlaydi.




O'zbekistonda “Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya” 1992-yilda tan olingan.



Krossvordni yeching.

1. Konvensiyaning o'zbekcha ma'nosi.
2. Barcha uchun majburiy qoida.
3. Komil ____.
4. Ona ____.
5. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylanadi.
6. ____-totuvlik osoyishtalik.
7. Senatga saylanadi.
8. Kuch ____dadir.
9. ____ Majlis.
10. Sudda himoyachi.



1. Quyi sinflarda bolaning qanday huquqlari haqida o'qigansiz?
2. Uyda va maktabda qanday majburiyatlarni bajarasiz?
3. "Konvensiya" so'zi nimani anglatadi?
4. "Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya" O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan qanday farq qiladi?





7. KONSTITUTSIYA VA BIZNING HUQUQ HAMDA MAJBURIYATLARIMIZ



1. 3-sinfda huquqlarimiz to'g'risida o'qiganlaringizni eslang.
2. Konstitutsiyamizda bizning qaysi asosiy huquqlarimiz to'g'risida yozilgan?
3. Yashash huquqi, mehnat qilish huquqi haqida alohida to'xtaling.

“Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya”da va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bo'lgan asosiy o'xshashlik – bu hamma teng huquqli bo'lishi shartligidir.

Hech kim boshqa insonni yashash, mehnat qilish, bilim olish va dam olish huquqidan mahrum qilishga haqli emas.



Siz 3-sinfda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida qayd etilgan o‘z huquqlaringizning eng asosiylari bilan tanishgan edingiz. Endi ushbu va keyingi darslarda siz bolalar huquqlari haqida ko‘proq ma‘lumotga ega bo‘lasiz.

Konstitutsiyamizda har bir insonning asosiy huquqi – yashash huquqi ekanligi qayd etilgan. Hech kim hech kimni hayotdan mahrum qilish huquqiga ega emas. Davlat fuqarolar o‘zlarini xavfsiz his qilishi va jinoyatchilar jazosiz qolmasligiga amin bo‘lishi uchun barcha choralarni ko‘rishi kerak.



O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,
18-modda.



Quyida sanab o'tilgan insoniy sifatlarni diqqat bilan o'qing. Siz ularni qanday tushunasiz? Siz bu sifatlardan qaysilariga egasiz?

O'zini hurmat qilish.

O'ziga talabchanlik.

Kamsitishga, haqorat qilishga salbiy munosabat.

Zo'rvonlikning har qanday ko'rinishiga qarshi chiqish.

Hamdardlik, odamlarga hurmat, rahmdillik.

Yordamga tayyor turish.

Tinchlikparvarlik.

Xafagarchilikni unutish.

Yaxshi munosabatga minnatdor bo'lish qobiliyati.

Adolatlilik hissi, vijdonlilik.

Yolg'on, aldovlarga qarshi chiqish.

Mehnat qilayotganlarga, mehnat natijalariga hurmat bilan qarash.

Va'daga vafodorlik.

Taqlid qilinadigan odamlarni ongli tanlash.

O'z kuchiga ishonish.




1. "Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya" va Konstitutsiyamiz o'rtasida qanday o'xshashlik bor?
2. Konstitutsiyamizning 18-moddasida nima deyilgan? Siz uni qanday tushundingiz?
3. Barcha fuqarolarning asosiy huquqi nimadan iborat?





8. DAM OLISH VA MEHNAT QILISH HUQUQI



1. Mamlakatimizda nishonlanadigan qaysi bayram kunlarini bilasiz?
2. Bo'sh vaqtingizni qanday o'tkazasiz?
3. Mehnat qilish va dam olish huquqi deganda nimani tushunasiz?

Asosiy qomusimiz – Konstitutsiyamizda har birimiz dam olish va mehnat qilish huquqiga egaligimiz qayd etilgan. Demak, biz o'zimizga yoqqan mehnat turi bilan shug'ullanishimiz va vaqtda dam olib, hordiq chiqarish huquqiga egamiz. Mamlakatimiz qonuniga ko'ra, har bir

ishchi yoki xizmatchi 6 oydan so‘ng ta‘til olish huquqiga egadir. Ular har haftada kamida bir kun dam oladilar. Undan tashqari, ayrim bayram kunlari ham dam olish kuni qilib belgilangan.



Har bir shaxs mehnat qilish huquqiga ega.
O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,
37-moddasidan.



Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam
olish huquqiga egadirlar.
O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,
38-modda.



Rasmlarga qarab savollarga javob bering.



1. Rasmlarda qanday bayramlar tasvirlangan?
2. Siz yana qanday bayramlarni bilasiz?
3. Xalqimiz uchun eng ulug' bayram qanday nomlanadi?
Bu bayram mamlakatimizda qanday nishonlanadi?



1. Dam olish huquqi haqida Konstitutsiyamizda nima deyilgan?
2. Mehnat qilish huquqi haqida-chi?
3. Katta yoshdagilarning dam olish huquqlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Katta yoshdagilar mehnat ta'tilidan boshqa yana qaysi kunlarda dam olishlari mumkin?
5. Maktab o'quvchilari-chi?





9. BILIM OLISH HUQUQI



1. Bilim olish deganda siz nimani tushunasiz?
2. Bilim olish huquqi deganda-chi?
3. Bilimli va o'qimishli kishilar mamlakatga nima uchun kerak?
4. Nima uchun barchamiz maktabga boramiz? Maktabsiz hayotingizni tasavvur qila olasizmi?



Har kim bilim olish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,
41-modda.



Siz bilan bilim olish huquqi haqida 3-sinfda ham o'qigan edik. Har bir inson qobiliyati va intilishiga qarab



istaganicha bilim olish huquqiga ega. Aholi uchun yetarlicha umumta'lim maktablarini ochish davlatning zimmasidadir. Davlat moddiy jihatdan kam ta'minlangan oilalarning farzandlariga moddiy yordam ko'rsatadi. Bilim olish huquqi barchaga barobar bo'lib, har bir bola, ota-onasi kimligidan qat'i nazar, o'qish imkoniyatiga ega.

O'zbekistonda umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini olish barcha uchun majburiy va bepuldir. Bu har bir bolaga bilimli bo'lish imkoniyatini beradi. Hozirgi zamonda o'qish va yozuvsiz hayotni tasavvur qilish qiyin. Kelajakda aqlli, ziyoli, hurmatga sazovor insonlar bo'lishimiz uchun o'qishimiz kerak. Jonajon Vatanimizning munosib farzandlari bo'lish uchun ham o'qimishli, bilimli bo'lishimiz lozim. Shuning uchun ham bilim olish bizning nafaqat huquqimiz, balki burchimiz hamdir.



Ulg'ayaman, qo'lda kitob,
Yo'l olaman maktabga.
Har bolaning huquqi bor
Maktabda o'qimoqqa.



1. Bu to'rt qator she'rda qanday huquq haqida so'z bormoqda?
2. Katta bo'lganingizda kim bo'lmoqchisiz? Sizga shu kasb nimasi bilan yoqadi?
3. Kelajakda shu kasbni egallashingiz uchun nimalar qilish kerak deb o'ylaysiz?





Quyida berilgan gaplar rasmlarning qaysi biriga mos ekanligini ajratib ko'rsating.



1. Tabiatni asrab-avaylash – hammamizning burchimiz.
2. Har kim bilim olish huquqiga ega.
3. Har birimiz dam olishga haqlimiz.
4. Muallim bizga bilim olishga yordamlashuvchi ustozdir.

5. Konstitutsiyamizda fuqarolarning asosiy huquq va burchlari keltirilgan.



1. Bilim olish huquqi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Bilim olish nima uchun kerak?
3. Bizga bilim berish kimning zimmasida? Bunga javoban biz nima qilishimiz lozim?





10. BARCHA FUQAROLAR NOHAQLIKDAN HIMOYALANISH HUQUQIGA EGADIRLAR

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida "Har bir fuqaro o'zining insoniylik huquqini poymol qiladigan munosabatdan himoyalanişga haqlidir" deb yozilgan.

Beodob va intizomsiz bolalar ruhiyatiga ta'sir qilinmagan holda jazolanishi mumkin. Kattalar bolalarning haq-huquqlarini poymol qilmasliklari, aksincha, hurmat qilishlari kerak.

Har birimiz yodda tutishimiz kerakki, bizning nojo'ya xatti-harakatimiz kimningdir huquqini poymol qilishi mumkin. Biz nafaqat huquqimiz, balki majburiyatlarimizni ham unutmasligimiz zarur. O'zimiz uchun ushbu "Men haqliman", "Sen haqlisan", "U haqlidir", "Biz haqlidirmiz", "Ular haqlidirlar" kabi iboralarni takrorlab turishimiz darkor. Shundagina inson huquqining poymol qilinishi kamroq sodir bo'lardi.



Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,
44-moddasidan.



Tasavvur qiling, yoshingiz ulg'aydi, o'qituvchi bo'ldingiz va o'zingiz maktabda ishlaysiz. O'quvchilar siz talab qilgan ishni bajarmadilar. Guruhlarga bo'linib, o'quvchilarning bu qilmishlari qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini sanab daftaringizga yozing.



1. Siz oilangizda o'rnatilgan tartibni buzsangiz, otanangiz bunga qanday munosabat bildiradi?
2. Sinfdagi qoidalardan siz uchun eng muhimi qaysi biri?
3. Boshqalar umumiy qonun-qoidalarni buzmasliklari uchun siz nima qilasz?

Hatto ko'plab kattalar ham o'zining talablarini xushmuomalalik bilan tushuntirishga qiynaladilar. Quyida keltirilgan holatlarga nisbatan o'z munosabatingizni xushmuomalalik bilan bildirishga harakat qilling.



1. O'rtog'ingiz sizdan kitob olib, uni uzoq vaqt qaytarib bermadi.
2. Bolalardan biri sizning tashqi ko'rinishingiz ustidan kuldi.
3. Siz do'konda navbatda turibsiz, kimdir navbatsiz o'tib ketmoqchi.
4. Sinfdoshlaringiz orasidagi kelishmovchilik mushtlashishga aylanib ketmoqchi.



O'ng tomondagi ta'kidlarning qaysi biri chap tomondagi huquqlarning qaysi biriga mos kelishini ko'rsating.

Huquqiy himoya huquqi	Hech kim hech kimni yashash huquqidan mahrum qilolmaydi.
Yashash huquqi	Har kim sud himoyasi bilan ta'minlanadi.
Ishlash va dam olish huquqi	Davlatdagi har qanday mulk qonun bilan himoyalanaadi.
Mulkdorlik huquqi	Har kim bilim olish huquqiga ega.
Bilim olish huquqi	Har birimiz ishlash va dam olish huquqiga egamiz.





11. BIZ, ONA TABIAT VA MULK



1. Rasmlarga qarab, xayolingizga qanday fikrlar keldi?
2. Nima uchun biz tabiatni “Ona tabiat” deb ataymiz?
3. Nima uchun uni muhofaza qilishimiz kerak deb o‘ylaysiz?
4. Tabiatga qay tariqa yordam berishimiz mumkin?

Umumxalq mulki deya ataladigan yerimiz, ona zaminimiz, quyoshning nuri, yashil daraxtlar va barglarning shiviri, suv, daryolar va qushlarning kuyi – bularning barchasi bizni qurshab turgan ona tabiatdir. Bizning sog‘lig‘imiz ham, atrofning go‘zalligi ham, havoning sofligi ham tabiatga bog‘liqdir. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasining




Konstitutsiyasida bizni o‘rab turgan tabiatni asrashimiz zarurligi haqida yozilgan.




Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 50-modda.

Yuqorida yerni umumxalq mulki dedik. Bizni o‘rab turgan hamma narsa davlatga, qaysidir korxonaga yoki kimgadir tegishlidir. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida har qanday mulk bizning davlatda qonun bilan himoyalanaadi, deb yozilgan. Agar siz kimningdir narsasini tasodifan yoki atayin buzib qo‘ysangiz, bu narsa tufayli egasiga yetkazilgan zararni ota-onangiz qoplashi lozim bo‘ladi.



Davlat mulki	Shaxsiy mulk	Boshqa tashkilotlar mulki




Daftaringizga sog'liq uchun foydali va sog'liq uchun zararli odatlarga beshtadan misol yozing.



Tabiatning gullab-yashnashi va ...

Mirzacho'l



Inson faoliyatidan oldin.



Inson faoliyatidan keyin.

Orol dengizi



Inson faoliyatidan oldin.



Inson faoliyatidan keyin.



1. Rasmlardagi manzaralarni sharhlab bering.
2. Inson cho'lni (1-rasm) gullab-yashnatib, g'allazorga (2-rasm) aylantirgan. Shu inson Orol dengizini 3-rasmdagi ahvoldan 4-rasmdagi ahvolga solganiga sabab nima deb o'ylaysiz?
3. Orol dengizi muammosini yechish bo'yicha tadbirlar nima uchun aynan mustaqillik yillarida amalga oshirilmogda?



Keling, o'rganilgan mavzularning asosiylarini bir eslab ko'raylik. Rasmlarda nimalar tasvirlangan? Ular nima sababdan biz uchun naqadar muhim?



1. Sizningcha, nega "Yer – umumxalq boyligi" deyiladi?
2. Tabiat qanday muhofaza qilinadi?
3. Sizningcha, bilim olish bizning huquqimizmi yoki burchimiz? Dam olish-chi?
4. Bizning asosiy huquq va burchlarimiz qaysi kitobda bayon qilingan?



OMINA KARIMOVA

KONSTITUTSIYA ALIFBOSI

4- sinf o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma

Nashriyot litsenziyasi AI № 185 10.05.2011 y.

“YANGIYO‘L POLIGRAF SERVIS”

Toshkent — 2015

Muharrir – *J. Azimov*

Texnik muharrir – *M. Riksiyev*

Musahhihlar – *M. Riksiyeva*

Bosishga ruxsat etildi 22.12.2015. Bichimi 70x90 1/16.

“Pragmatica” garniturası. Ofset bosma.

Bosma tabog'i 2,0. Shartli bosma tabog'i 2,34.

Adadi 40 000 nusxa. Buyurtma № 50-15.

“Yangiyo'l poligraf servis” MCHJ bosmaxona.

112001, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Samarqand ko'chasi, 44.